CHOLG‘U IJROCHILIGI DARSLARINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Begjanov Berdaq Karimbaevich *– o‘qituvchi*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: milliy musiqa, tinglovchi, ijrochilik madaniyati, tovush, ohang, an’anaviy, millliy, badiiy did, ruhiyat.

Ключевые слова: националная музыка, слушатель, исполнительская культура, звучание, тембр, традиция, националный, художественный вкус, дух.

Key words: national music, listener, performing culture, sound, timbre, tradition, national, artistic taste, spirit.

Harbir xalq o‘zining milliy musiqiy me’rosini sevsa, ajdodlar an’anasini ardoqlasa, uni munosib tarzda o‘zlashtirsa va qadriga yetsa, o‘zga xalqlar san’atini ham baholay oladi. Zero, bizgacha yetib kelgan musiqiy an’analar avlodlar zanjirining mustahkamligidan dalolatdir. Bu borada xalqimizning ma’naviy boyligi bo‘lgan maqomlar, maqom yo‘llariga mansub mumtoz musiqa asarlari hozirgacha o‘zining badiiy va estetik imkoniyatlarini yuqori darajada saqlab kelayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Ularni o‘rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish zamonamizning talab va ehtiyojida bo‘lgan dolzarb masalalardan biridir.\

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Biz yangi sharoitda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirishga intilmoqdamiz. Bunday yondashuv - bugungi va kelgusi rivojlanishimiz uchun mustahkam poydevordir. Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonni barpo etish-yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir” – deb ta’kidlaydi”. [1.5]

Zero, hozirgi kunda oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiladigan chuqur bilimga ega, yuksak tarbiya ko‘rgan, barkamol avlodni ya’ni, komil insonni voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Bu vazifani amalga oshirishda ustozlarning o‘rni kattadir. Bugungi kunda ustozlar ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya to‘g‘risida bizga meros bo‘lib qolgan yozma manbalaridan ustoz va shogirdlik talablarida belgilangan ibratli qoidalarni chuqur o‘rganish, tadqiq etish va ulardagi ilg‘or tajribalarni hozirgi zamon pedagogik jarayonlarga tadbiq etgan holda ta’lim-tarbiya ishlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg‘ularga boy bo‘lib, tanbur, dutor, g‘ijjak, nay, qo‘shnay, surnay, chang, qonun, ud, rubob, doira va nog‘ora kabi cholg‘ular o‘zining mukammalligi bilan mohir ijrochilar amaliyotida munosib o‘rin topgan. Chunki har bir cholg‘u o‘zining shakllanish tarixi, ijro imkoniyatlari, betakror, jozibali sadolanishi va muhlislariga ega. Ularning barcha siru-sinoatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish har bir o‘qituvchining muqaddas burchidir.

Musiqa bugun yoki kecha yuzaga kelgan kashfiyot emas, uning kelib chiqish tarixi olis o‘tmish bilan bog‘liq. Mutaxassislar musiqa ilmini ikkiga bo‘ladilar: Sharq va G‘arb. Shubhasiz, Sharq musiqasida shaxsning zohiriy va botiniy dunyosini boyitadigan jihatlar bisyor. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Mahbub-ul-qulub” asarida ashulachi va cholg‘uchilar – mutrib va mug‘anniylar to‘g‘risida shunday fikrlarni bildirgan: “Shodlik oshiruvchi xonanda, g‘amni tarqatuvchi sozanda – bularning har ikkisiga hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar. Axir, ko‘ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi. Har bir sozandaning kuyi dardliroq ijro etilsa, uning xonishi dardli yurakka qattiqroq ta’sir qiladi.

Biz mazkur maqolada cholg‘u ijrochiligini o‘qitish, shuningdek, o‘zbek milliy ohanglarini rubob cholg‘usida aniq va jozibali qilib yetkazish ustida olib borgan kichik izlanishlarimiz natijalari xususida fikr yuritamiz.

Musiqiy cholg‘ular insoniyat ma’naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya’ni xalq ijodiyoti mahsulidir. Ma’lumki, musiqiy cholg‘ular xalqlarning moddiy hamda ma’naviy boyligidir. Chunonchi, har bir xalq o‘z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an’analarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma’naviyatiga xos yaratilgan amaliy san’at namunalari orqali ularga mos keluvchi cholg‘u asboblariga egadir. O‘zbek musiqiy cholg‘ular olami bu xususda ma’nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e’tirof etib o‘tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma’naviyati buyuk bo‘lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir. O‘zbek xalq cholg‘ulari rang-barang tarzda, o‘ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga

mos cholg‘u asboblari sifatida asrlar osha rivojlanib kelgan.

Boshlang‘ich musiqa maktablarida qashqar rubobini ushlashdan boshlab, chap va o‘ng qo‘l harakatlari, tovush chiqarish, sozlanish, barmoqlar joylashuvi kabi ijro uchun uslubiy ko‘rsatmalar beriladi. Shu bilan birga, ijrochilikni yanada rivojlantirish uchun nota yozuvi orqali ko‘plab mashqlar, sodda va ravon usulli turli xarakterdagi texnik mashqlar tavsiya etiladi. Hozirgi kunga kelib, oliy ta’lim muassasalariga o‘rta maxsus o‘quv yurtlarini tugatgan yosh iqtidorli sozandalar qabul qilinmoqda. An’anaviy ijroda ishlatiladigan qochirimlar, bezaklar alohida ko‘rinishda berilgan.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida bir nechta bolalar musiqa va san’at maktablaridagi an’anaviy rubob ijrochilik sinflarining dars jarayonlari bilan tanishib chiqdik. Qolaversa, boshqa viloyatlarda rubob cholg‘usi bo‘yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassislar bilan suhbatlashdik, ularni qiynab kelayotgan muammolar bilan yaqindan tanishdik. Ta’lim jarayonidagi eng katta kamchilik bu kadrlar yetishmasligi. Bolalar musiqa va san’at maktablarida faoliyat olib borayotgan rubobchi o‘qituvchilarning aksariyati maqom ijrochiligini emas aksincha, xalq cholg‘u ijrochiligini tamomlagan mutaxassislar ekanligi ko‘pchilikka ma’lum.

Odatda an’anaviy ijrochilik yo‘nalishiga qiziqish har bir viloyatning chekka hududlarida musiqa maktablariga to‘g‘ri keladi. Lekin an’anaviy cholg‘u bo‘yicha o‘qituvchilarni yetishmasligi, milliy musiqa san’atini, jumladan maqom san’atini chekka hududlarda ham o‘quvchi-yoshlarga o‘rgatish va singdirishda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa yoshlarimizning qulog‘i o‘zbekona ohanglardan ancha yiroqlashib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammoni inobatga holda moxir an’anaviy rubob ijrochilari bilan chekka hududlardagi musiqa va san’at maktablarida mahorat darslari tashkil etdik, nafaqat maqom ijrochilarini balki, xalq cholg‘ulari bo‘yicha ham ustoz sozandalarning ijro uslublari va tajribalarini ommalashtirishga harakat qildik.

Kuzatishlarimiz natijasida shu yana bir mummoga duch keldik. Bu bolalar musiqa va san’at maktablarida an’anaviy rubob ijrochiligiga oid darslik va o‘quv adabiyotlarni mavjud emasligi. Agar o‘quv adabiyotlari yo‘q bo‘lsa unda o‘qituvchilar qaysi adabiyotlardan foydalanishadi degan o‘rinli savol tug‘ilishi tabiiy. An’anaviy rubob ijorchiligida o‘qituvchilar asosan xalq cholg‘u ijrochiligiga oid darslik, o‘quv qo‘llanma va notalardan foydalanishlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ushbu adabiyotlar bilan tanishib chiqqanimizda, ko‘pchiligida aytarlik yangiliklar mavjud emas.

Hozirgi davrda o‘quv adabiyotlarning ham zamonaviy ko‘rinishda yaratilishi ta’limning sifat va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarda boshlang‘ich an’anaviy rubob ijrochilari uchun texnik mashqlar, ikki xil sozlanishdagi gammalar (minor, major, melodik va garmonik) va o‘nlab kichik xalq va bastakorlik kuylarining notalarini kiritish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari rubob cholg‘usidagi ijro pozisiyalari haqida batafsil ma’lumotlar berish lozim.

Ijrochilarga musiqadagi yuksak badiiylikni tushuntirish juda muhimdir. Asarlardagi badiylikni xis qilish asosida o‘quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi hamda musiqiy didini tarbiyalaydi. Ko‘p sonli savodxon tinglovchilarni tarbiyalash uchun bolaligidan musiqani tushunishga va uni sevishga o‘rgatish lozimdir. Musiqani sevish – bu musiqani doim tinglash demakdir. Musiqani tushunish – bu his etish, tahlil etish, bilish demakdir. Avvalambor, o‘quvchilarni tinglashga o‘rgatishimiz kerak. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga asarni tinglash jarayonida nimalarga etibor berish lozimligini aytib o‘tish kerak. Eng muhimi tinglanayotgan asar o‘quvchilar yoshiga mos va esda qoladigan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi tinglanayotgan asar mazmunini tushuntirish orqali ahloqiy-estetik tarbiya berishi lozim.

Musiqa tinglashga o‘rgatishda o‘qituvchi oldiga qo‘yiladigan vazifalar: - musiqa san’atiga havas uyg‘otish, musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali qiziqtirish bolalarda musiqiy ehtiyojini kuchaytirish, o‘quvchilarda badiiy taasurotlarni to‘plab borish. (savol javob, suhbatlar orqali) Buning uchun:

1. Tinglanayotgan asarni oddiy musiqiy pedagogik tahlil etish.

2. Tinglashda oddiy musiqa terminlarini va atamalarini qo‘llab borish.

3. Kuyning oddiy tuzilishi, uning ifoda vositalarini, ritmik tuzilishlariga qarab chapak chalish va kuylashga o‘rgatish.

4. Musiqa ijodkorlari, ijrochilar turlari cholg‘u asboblari bilan tanishtirish. Shuningdek :

1. Musiqiy janrlarini bilish (raqs, balet, opera va boshqalar)

2. Asarning tuzilishini bilish (bandli, 2 qismli yoki 3 qismli)

3. Kompozitorlarning hayoti va ijodi bilan tanishtirish;

4. Musiqiy nutqni elementlarini bilish (xarakteri, tempi, dinamikasi, musiqiy ifoda vositalari va boshqalar)

5. Musiqiy estetik ma'lumotlarini berish. (tinglash madaniyati)

Shuningdek, cholg'u ijrochiligi darslarida o'quvchilarga ijrochilik holati hususida batafsil ma'lumot berish lozim. Ijrochilik holati bir yoki bir necha darsda o'zlashtiriladigan jarayon emas. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi o'quvchilar bilan doimiy ravishda ijrochilik holati ustida ishlash davomida uni noto'g'ri bo'lib qolmasligi uchun nazorat qilib borish kerak. Chunki ijrochilik holati avval yaxshi bo'lib, keyinroq buzilishi ham uchrab turadi. Bundan tashqari ijrochilik holati o'quvchi – ijrochining konsert ijrochiligida, aynan yakkaxon solist sifatida, cholg'u bilan hamohang harakat qilish jarayonida, musiqiy asarning mohiyatini ochib berishda va tinglovchi tomoshabinda badiiy-estetik taassurot qoldirishda asosiy omillardan biridir. Zero, cholg'uni yaxshi o'zlashtirish birinchi navbatda uni to'g'ri tutishdan boshlanadi.

Buyuk olim, faylasuf Abu Nasr Farobiy "Musiqa haqida risola" asarida musiqani uch turga ajratadi. Ulardan birinchisi insonga huzur-halovat baxsh etar ekan; ikkinchisi ehtiros uyg'otib, qalbni junbushga keltirar ekan; uchinchisi esa kishini uyga toldirib, fikrlashga undar ekan. Alloma "Ixso ul-ulum" asarida musiqa ilmi qondan zaruriyat va ehtiyoj tufayli paydo bo'lgani xususida yozar yekan, uning ahloqiy-tarbiyaviy jihatlariga alohida to'xtaladi. "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, nomukammal xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham ohanglar vositasida ruhni sog'aytirish asnosida tana sog'aytiriladi, ruh esa bag'ridagi quvvatning tartibga solinishi va o'z mohiyatiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi".

"Har bir inson – deb yozadi Ibn Sino – ko'nglidagini boshqaga bildirish, boshqalarning ko'nglidagini esa o'zi bilishga muhtojdir. Shuning uchun musiqaning insonga ta'siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o'rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. Shu o'rinda Asafevning «…musiqa – bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin» - degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir. [2.17]

Demak, ta'lim oluvchilarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini, shuningdek, ijrochilik mahoratlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy barkamolligiga katta ta'sir etadi.

O'quvchilar 1-sinfdanoq musiqada mazmun borligini u kishilarning hayotini aks ettirishini bilishlari lozim. Shuningek, musiqada shakl borligini bilishlari kerak. (mazmun - bu ifoda etish yoki tasvirlash, shakl - bu kompozitorni asar mazmunini ifoda etishga bog'liq).

Rubobda ijro etish qadimdan "Uztozdan-shogirdga" tamoyili asosida o'rgatilgan. Bu jarayon uzoq davom etadigan, mahoratli ustozlardan shogirdlikning sir asrorlarini, shuningdek ijro uslublarini o'rganish, bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga zamin yaratadi. Bu jarayonda asosiy vosita tinglab o'rganish bo'lib, shogird quloqlari orqali eshitgan kuyni o'zi cholg'uda ifoda etishga harakat qiladi, natijada sozanda uchun eng zarur bo'lgan tinglab tushunish, diqqatni jamlash kabi hislatlar mukammal darajaga shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov R.Q. «Rubob navolari». T.: 1993 y.
2. Usmonov K. «Boshlang'ich rubob darsligi». T. 1995.
3. Mansurov A., Karimova D. Musiqa madaniyati: 5-sinf uchun darslik. –T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2001. – 130 b
4. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochilarining zarhal sahifalari. –Xorazm, 1999. – 51 b.
5. Musiqa psixologiyasi. –T.: Musiqa, 2005. – 78 b.
6. Nazarov O. Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent. 2008. – 108 b.

REZYUME. Maqolada rubob ijrochilik madaniyatiga xos, ayniqsa, rubob ijrochiligidagi qadimiy janr va an'analar, ijrochilikning nazariy va amaliy jihatlari, an'anaviy ijro uslub-usullarini tiklash va ularni yosh avlod qalbiga chuqur singdirish masalalari xususida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются вопросы возрождения старинных жанров и традиций рубоб-исполнения, восстановления традиционных испольнителских приемов и привития их в сердцах молодого поколения, свойственных рубоб-исполнительской культуре.

SUMMARY. The article deals with the issues of revival of ancient genres and traditions of rubob performance, restoration of traditional performing techniques and instilling them in the hearts of the younger generation, characteristic of rubob performing culture.

KOMPOZITOR HÁM JASLAR

Gulnara Elmuratova – *assistent oqıtıwshı*
Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filialı

Tayanısh sózler: kompozitor, dirijyor, muzıka, laureat, mádeniyat, mono opera, balet, drama, simfoniya, uvertyura, ariya.
Ключевые слова: композитор, дирижёр, музыка, лауреат, культура, моно опера, балет, драма, симфония, увертюра, ария.
Key words: composer, conductor, music, laureate, culture, mono opera, ballet, drama, symphony, overture, aria.

Insannıń ómiri hám onıń mádeniy turmısında muzıkanıń ornı ayrıqsha. Muzıka óneri insannıń ruwxıyatına tásir etiwdey, kewil keshirmelerine uyǵınlasıp, onı bayanlawday iláhiy kúshke iye. Óziniń kóp jıllıq tariyxına iye qaraqalpaq muzıka óneri de jáhán muzıkasına salıstırmalı ózgeshelikke iye ekenligi menen áhmiyetli.

Búgingi kúnde muzıka ónerin jaslarımızǵa keńnen tanıstırıw, olarda muzıkalıq bilimdi jetilistiriw maqsetinde usı jıldıń 18-dekabr sánesinde Nókis qánigelestirilgen mádeniyat mektebinde bul tarawda uzaq jıllardan berli dóretiwshilik etip, óziniń ájayıp hám tákirarlanbas namaları menen xalqımızdıń júrek tórinen orın alıp kiyatırǵan belgili kompozitor, dirijyor, xormeyster, Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan Respublikaları kórkem óneri ǵayratkeri, Berdaq atındaǵı sıylıqtıń laureatı, professor Qurbanbay Zaretdinov penen oqıwshı-jaslar arasında ushırasıw keshesi bolıp ótti.

Belgili kompozitor Q.Zaretdinov 1951-jılı Kegeyli rayonınıń Shoqtaranǵıl elatinda, Baqsı jap boyında, diyqan shańaraǵında dúnyaǵa kelgen. Mektepte birinshi ustazı Usnaddin Begjanov, al saz-ásbap shertiwdi aǵası Ziywatdin Lepestovtan úyrengen. Q.Zaretdinov Nókis muzıka hám xoreografiya bilim jurtın oqıp hám tamamlap, soń 1970-jılı Tashkent qalasındaǵı M.Ashrafiy atındaǵı konservatoriyasında oqıwın dawam ettiredi. Kompozitor óz miynet jolın 1968-jıldan basladı. Q.Zaretdinov 1989-jıldan házirgi kúnge shekem Qaraqalpaq mámleketlik muzıkalı akademiyalıq teatrdıń bas dirijyori bolıp islep kelmekte. Derlik yarım ásirlik ómirin muzıka ónerine bağıshlaǵan hám búgingi kúnde de dóretiwden toqtamaǵan kompozitor Q.Zaretdinovtıń bizge belgili «Watan», «Yarım sen júrgen jerde», «Xalıq ushın», «Óziń Watan», «Ana jer-Ana», «Búlbúl», «Sálem, Ana topraǵım», «Juldız», «Báhár, báhár», «Xosh keldiń, Nawrız», «Dayı qız», «Seniń kózleriń» h.t.b. qosıq hám romansları, «Posqan el» oratoriyası, «Aral muńı» a kapella xor syuitası, «Tirsekler», «Laqqılar» hám «Yar diydarı» muzıkalı komediya hám dramaları, hazirgi kúnde «Tumaris» operası, «Edige» operası hám muzıkalı draması, «Qırıq qız» baleti, «Berdaq» muzıkalı draması, «Xalıq ushın» operası hám «Aralım meniń» monoperası teatrımızda saxnalastırılıp, tıńlawshılarımız súyip tıńlaytuǵın shıǵarmalarǵa aylandı. [1]

Qaraqalpaq muzıka ónериniń rawajlanıwına salmaqlı úlesin qosıp kiyatırǵan kompozitor Q.Zaretdinov penen ótkerilgen saltanatlı keshe dawamında oqıwshı-jaslar kompozitordıń ómiri hám dóretiwshiligi menen keńnen tanısıw maqsetinde keshe miymanına ózleriniń qızıqtırǵan sorawların berip, óz gezeginde tiyisli juwapların aldı, al dóretiwshiligine baylanıslı sorawlarǵa shıǵarmalardı simfoniyalıq orkestr menen birgelikte janlı atqarıp berildi. Sol sebepli bul kesheni ushırasıw-koncert keshesi dep atasaqta boladı. Kompozitordıń dóretiwshiliginen dúzilgen koncert baǵdarlaması «Jaslıq» simfoniyalıq orkestr ushın uvertyura, «Tumaris» operasınan Tumaristiń ariyası, «Xalıq ushın» operasınan Berdaqtıń ariyası, «Aralım meniń» mono operasınan shayırdıń qosıǵı, I.Yusupov sózine «Bul jer ele zor boladı» sıyaqlı qosıq-namalar menen ushırasıw keshesiniń kórkemligi arttı.

Keshe sońında Nókis qánigelestirilgen mádeniyat mektebiniń direktorı hám «Muzıka teoriya» bólimi kafedrası baslıǵı hám oqıtıwshıları tárepinen minnetdarshılıq sózleri aytılıp, miymanımızǵa estelik sawǵaları tapsırıldı. Bul sıyaqlı ushırasıw keshelerdiń jaslarımızǵa kórkem